

**MILLIY MUSIQIY MEROS VA MILLIY MUSIQASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ И НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ  
SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF NATIONAL MUSICAL HERITAGE AND NATIONAL MUSIC**

*Shokirov Tohirjon Nurmamatovich*

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada milliy musiqiy meros va milliy musiqaning ijtimoiy-falsafiy tahlili hamda musiqaning inson ongi va xissiyotiga ijobiy ta'siri, musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarining birligi, musiqa tufayli inson sezgilari ijtimoiylashishi, fikr tiniqlashishi, borliqni idrok etish faollashishi, insondagi mehr-shavqatlilik va hamdardlik singari insoniy fazilatlar musiqa orqali shakllanishi va kamol topishi, musiqa insonning turli kayfiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi, shuningdek, musiqa ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayot baxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir, u kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam berishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается социально-философский анализ национального музыкального наследия и национальной музыки, а также положительное влияние музыки на человеческий разум и эмоции, содержание музыки – единство личностных, национальных и универсальных художественных ценностей, социализация человеческих чувств благодаря музыке, ясность мысли, активизация восприятия бытия, формирование в человеке таких человеческих качеств, как сострадание и сочувствие. приводятся сведения о том, что музыка-это средство воспитания, обладающее огромной аффективной силой, пища для души, способная дать жизненную силу человеческой психике, она помогает людям получать удовольствие, присутствовать, получать удовольствие, приятно отдыхать, расслабляться, мыслить, философски наблюдать.

**ANNOTATION**

In this article, the socio-philosophical analysis of national musical heritage and national music and the positive impact of music on the human mind and personality, the content of music – the unity of personal, national and Universal artistic values, the

socialization of human senses due to music, the clarity of thought, the activation of perception of being, the formation and maturation of human qualities in information is provided that it helps people to enjoy, have fun, enjoy, have an interesting rest, relax, think, make philosophical observations.

## KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "o'zbek milliy musiqiy merosini asrab-avaylash"<sup>1</sup> bilan birga jamiyatda badiiy-estetik did va ideallar tizimini rivojlantirishga va bu orqali yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish, ularning san'atga bo'lgan qadriyatli munosabatini o'stirish, badiiy tafakkuri, estetik didini, emotsional ta'sirlanishi va ayniqsa musiqiy tafakkurini rivojlantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. SHu bois yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish asosida ularda estetik did, badiiy obrazlilikni tarbiyalash ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Buning uchun yoshlarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga imkoni beruvchi innovatsion yondashuvlar asosida ta'limni tashkil etish, ta'lim metodikasini integratsiyalashga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil qilish muhim vazifalardan biridir. Davaltimiz rahbari SH.Mirziyoevni «doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan dolzarb masala bu - yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq ekanligi»<sup>2</sup> va bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshirish va uning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e'tibor berishimiz zarur.

Musiqaning inson ongi va xissiyotiga ijobiy ta'siri uning ruhiy jarayonlarga hamda tabiatga hamohang ekanligidan dalolatdir. Musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarining birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruxiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi.

Musiqa tufayli inson sezgilari ijtimoiylashadi, fikr tiniqlashadi, borliqni idrok etish faollashadi. Insondagi mehr-shavqatlilik va hamdardlik singari insoniy fazilatlar musiqa orqali shakllanadi va kamol topadi. Musiqa insonning turli kayfiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. SHuningdek, musiqa ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayot baxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi. Rus faylasufi A.F.Losevning fikricha musiqa mantiq fanining predmetidir<sup>3</sup>. SHu bilan birga musiqa san'atning bir turi sifatida san'atshunoslik va estetika, ijod psixologiyasi fanlarining predmeti bo'lib xizmat qiladi. Musiqa nafaqat qator fanlar predmeti, balki inson

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 январь «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармрни. // <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 257.

<sup>3</sup> Лосев А.Ф. Музыка как предмет логики. Москва.: 1990. -С. 195 – 392.

dunyosi ontologiyasini, inson faoliyatining turli shakllarini qamrab olgan hodisadir. Demak musiqa muammolarini ijtimoiy-madaniy hodisalar yig'indisida nazariy tahlil qilish orqali uni fundamental ilmiy tadqiqotlar kompleksining predmeti ekani ijtimoiy-falsafiy tahlil etildi. Bu esa maxsus fan - musiqa falsafasini - ya'ni dunyoni musiqa orqali aniqlash fanini vujudga keltiradi.

Musiqa – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, inson xissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi<sup>4</sup>. Musiqiy madaniyat esa ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, inson musiqiy tafakkurini rivojlantiradigan, jamiyat estetik, badiiy-musiqiy faoliyatni tartibga solib turadigan daraja hisoblanadi.

Musiqaning paydo bo'lishi masalasi, umuman san'atning paydo bo'lish masalasi bilan birga hal qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, musiqaning manbai, albatta, mehnat, odamning mehnat faoliyatidir<sup>5</sup>. Biroq, bu musiqa faqat ish vaqtidagi ritmlardan va shovqin-surondan kelib chikadi, degan gap emas. O'tgan asrning oxirida yashagan nemis olimi Karl Byuxer musiqa mehnat jarayonida paydo bulgan, degan nazariyani yaratgan. Byuxer odamlarning ko'pincha ish vaqtida ashula aytishiga asoslanib, ashula ish vaqtida chiqadigan ovozlardan va odamning xarakatidagi ritmlar bilan bog'liq holda paydo bulgan, deb tasdiqlaydi. Byuxer cholg'u asboblarning, hatto musiqa asboblarining paydo bulishini ish qurollariga bog'laydi<sup>6</sup>. Kuy esa ancha keyinroq paydo bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi.

Ibtidoiy davrda cholg'u asboblari uncha rivojlanmagan. Bu, bir tomondan, kuyning rivojlanmaganligiga, ikkinchi tomondan esa, umuman texnikaning rivojlanmaganligi va demak, musiqa asboblari yaratish texnikasining pastligiga bog'liqdir. Biroq, ibtidoiy davrda musiqa asboblarining barcha asosiy turlari: urib chalinadigan, puflab chalinadigan, simlik (kamonchali va chertib chalinadigan) asboblari paydo bo'lgan. Bu asboblarning barcha turlari va ularning ibtidoiy davrdagi hilma-xil turlari juda soddaligicha qolgan.

Insoniyatning musiqa bilan yashashni boshlagani uzoq tarixga borib taqaladi. Tom ma'nodagi musiqiy ohanglar va musiqa bilan shug'ullinishni misrliklar boshlab bergan. Misrliklarning qadimiy san'atini tasvirlaydigan Platon, ularda kamida o'n ming yil davomida qo'shiq va she'riyat borligini, qo'shiqni faqat "xudolar" yoki "xudolarga o'xshagan insonlar" yaratishi mumkin bo'lgan ulug'vor va ruhiy mavjudot ekanini aytadi. Axir, musiqa va she'riyat homiylari Osiris va Isida edi, san'atning homiysi esa Hermes edi. Aynan u toshbaqa kosasida iplarni tortib, birinchi cholg'u asboblarini yasagan. Nil qadimgi Misr yeri uchun, uning hosildorligi uchun,

<sup>4</sup> Ўзбек миллий энциклопедияси. –Тошкент.: Ўзбек миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2003. 6-том. –Б. 145

<sup>5</sup> Мирхайдарова З. Жаҳон халқлари мусиқа санъастининг ривожланиш жараёни.// Ўқув қўлланма. –Тошкент.: Ўзбекистон давлат консерваторияси. 2009. –Б. 18.

<sup>6</sup> Бюхер К. Работа и ритм. –Москва.: 1923. –С. 124.

tsivilizatsiya va madaniyati uchun juda katta rol o'ynagan. Tabiiyki, mamlakatning farovonligi shu daryoning suvga to'lib toshishiga bog'liq edi. SHuning uchun ko'pgina qo'shiq va kuylar ana shu daryo buylarida yashovchi aholi o'rtasida ko'proq yaratilgan va kuylangan. Nil qirg'oqlarida, suvda sug'orish ishlarida band bo'lganda kuylashgan. Misr xalq qo'shiqlarini jozibadorligi boshqa yurtlarga ham mashhur bo'lib ketgan. hukmdorlar qullarning qo'shiqchilari, rassomlariga o'z yurtlarini ulug'lash va go'zallik ramzi bo'lgan xalq san'ati qatorida e'tiborli murojaat etishgan. CHO'llarni o'zlashtirish, daryo va dengiz suv toshqiinlarini yengish og'ir mehnat orqali, oddiy qurilmalari kattaligi, uni yengishda xalqning matonati, san'ati shu sohani ifodalashga oliib kelgan. Bu monumental dekorativ san'at bo'lib, ko'p sonli ishtirokchilar, shu jumladan musiqachilar va qo'shiqchilar uchun yaratilgan.

Yunonlar misrliklardan olgan ilmlarni ijodiy ravishda ishlatishgan. Misol uchun, mana shu lira misteriyada inson organizmi tuzilishining yashirin ramzi hisoblangan. Asbobning korpusi jismoniy tanani, torlari - asablarni va musiqachi - ruhni ifodalagan. Asablarni chertib, ruh musiqa oxangini yaratgan.

Ma'lumki, yer yuzida mavjud xalqlar tarixiy shakllanish jarayonida insoniyatning eng go'zal fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan va qator an'analarni meros sifatida avloddan-avlodga yetkazib, avaylab kelganlar. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi muhim voqea, omil va tadbirlarni, chunonchi, kundalik turmush bilan bog'liq bo'lgan urf-odat, qadriyat, udumlar va marosimlarni saqlashga katta e'tibor berganlar. Ijtimoiy, iqtisodiyosiy voqealar ta'sirida xalqning tili, ma'naviyati, ruhiyati bilan bogliq xususiyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va ular asosida yangidan-yangi oqim, yo'nalishlarning yuzaga kelishi madaniyatning asosiy qonuniyatlaridan biri hisoblangan. Azal-azaldan hayotning turli tarmoqlarida muayyan shart-sharoitlar, voqe'lik, ma'naviy ehtiyojlar bilan bogliq marosim, tadbir va amallar rang-barang ko'rinishlarda tarkib topgan. Avlodlarning asrlar osha u yoki bu tadbirga amal qilib kelishlari jarayonida ularga bo'lgan ehtiyoj uzilib qolmaslik, marosimlarni sharoit taqozo etgan vaqtda o'tkazib turish va muntazam davom ettirish asta sekin rasm bo'lib kelgan. Xalqimiz xayotida mavjud an'analarning avloddan-avlodga o'tishi ko'proq bir umumiy jarayop (jonli jarayon), ya'ni ijro talqini (ijrochilik) bilan xarakterlanadi. Yaratilgan xar bir san'at namunasining an'ana tizimida shakllanishi, uning umr davomatida «ijrochilik» omili muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Qadimiy san'atlardan bo'lmish musiqa san'ati san'ati o'zining shakllanishi jarayonidan hozirgi davrimizgacha insoniyatning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Turli shartsharoitlarga asoslangan musiqiy namunalar ijod etilgan, o'zining ravnaqi yo'lida yirik-yirik asarlar vujudga kelishiga zamin yaratgan. Hayot manbai bo'lmish ijod, uning tizimida tarkib topgan ijodiyot o'tmish allomalari tomonidan ma'lum darajada yoritilgan. Musiqiy merosimizning mukammal va murakkab jihatlari, boy imkoniyatlari musiqa san'atining insoniyat hayotida qanchalik

ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Musiqa asarlarini yaratilishi va uning umrboqiylik sifatlar bilan sug'orilishida, taniqli rus olimi B.Asafʼevning «uchlik» ta'limotini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ya'ni, asar umrboqiyligidagi ijodkor, ijrochi va tinglovchining o'rni. Har bir asar ana shu «uchlik» talablarini bir biriga mutanosibligini ta'minlasa, umrboqiy musiqiy namunalar qatoridan joy oladi va mumtoz musiqa ijodiyoti talablariga javob berishi muqarrar<sup>7</sup>.

Odatda, har bir sohani puxta egallash uchun o'ziga xos ruhiy, ishqiy, ilmiy-amaliy pog'onalarni bosib o'tish taqozo etiladi. Bu o'rinda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish jarayonining o'zini ham alohida ahamiyat kasb etadigan jihatlari mavjud. Hayot tizimida kasblar bilan bog'liq yo'nalishlar ko'p, ularning barchasi ham ustoz-shogird qabilida voyaga yetadi. SHunday sohalar borki, o'tmish davomida ustoz shogird tizimiga xos muayyan qonuniyatlar shakllangan va bu qoidalarni bajarilishi hamda ma'lum maktabni o'tashi shart darajada amal qilib kelinadi. SHu bilan birga, odob-axloq, o'zini tuta bilish va amal qilish lozim bo'lgan yoki sharoit taqozo etadigan o'ziga xos «amal»lar ham mavjud.

### XULOSA

Umuman olganda, musiqa mavjudligining sharti - akustik to'lqindir, lekin musiqa falsafasini qiziqtiradigan masala tovushni musiqaga aylantiruvchi shartlar qanday bo'lishida. Tovushning musiqaga aylanishiga unga ehtiyoj borligi bilan aniqlanadi, chunki u xayotiy jarayonlarni qayta tiklashga, ularni aks ettirishga yo'naladi va xizmat qiladi. Pifagor birinchi bo'lib tovushning balandligi torning uzunligiga bog'liqligini aniqladi, musiqadagi intervallar va boshqa qonuniyatlarni raqamlar yordamida ifodalab, shu asosida musiqani matematik fanlarga taaluqli deb hisobladi va muhimi musiqani koinot mahsuli deb ta'rifladi. Aflotun musiqiy pardalarning ba'zi xususiyatlari orqali inson ruhiyatini tarbiyalash mumkinligini ta'kidladi.<sup>2</sup> Aflotunning shogirdi Arastu esa musiqaning yakka o'zi mustaqil soha bo'la olmaydi, u she'riyat va raqs bilan birga namoyon bo'ladi, deb hisobladi. Lekin Arastu musiqa tushunchasini sekin-asta tabiiy tovushdan badiiy ohang darajasiga olib chiqadi va uni ruhning harakati deb ta'kidladi. SHu bilan birga Arastu musiqani yana ijtimoiy hodisalar qatoriga qo'shdi. Uningcha musiqa insonlarga xordiq chiqarish uchun xizmat qilib, bilim doirasi keng insonlar uchun intellektual mashg'ulot ham bo'la olishini ta'kidladi<sup>3</sup>.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yil 28 yanvarъ «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
2. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –B. 257.

<sup>7</sup> БЕГМАТОВ СОИБЖОН ҲОФИЗЛИК САНЪАТИ (Ўқув-услугий қўлланма) "Музыка" нашриёти Тошкент 2007

3. Losev A.F. Музыка как предмет логики. Москва.: 1990. -S.
4. O'zbek milliy ensiklopediyasi. –Toshkent.: O'zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2003. 6-tom. –B. 145
5. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'astining rivojlanish jarayoni. O'quv qo'llanma. –Toshkent.: O'zbekiston davlat konservatoriyasi. 2009. –
6. Вухер К. Работа и ритм. –Москва.: 1923. –S. 124.
7. БЕГМАТОВ СОИБЖОН ҲОФИЗЛИК САНЪАТИ (Ўқув-услубий қўлланма) "Музыка" нашриёти Тошкент 2007